

**YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASIDA TA’LIM VA ILM-FANNI  
RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK AHAMIYATI**

*Nizomiy nomidagi O‘zMPU Tarix fakulteti*

*“Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

**Valiyeva Parizoda Dilshod qizi**

**Annotatsiya:** Maqolada Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida ta’lim va ilm-fanni rivojlantirishning strategik ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Zamonaviy jamiyat taraqqiyotida bilim va innovatsiyalarning hal qiluvchi omilga aylangani asoslab berilib, ta’lim tizimini isloh qilish orqali inson kapitalini rivojlantirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, ta’lim va ilm-fan integratsiyasini kuchaytirish, ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda yoshlarning intellektual va ijobiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishning dolzarbligi ochib beriladi. Maqolada ta’lim sifatini oshirish, xalqaro standartlarga moslashish va global bilim makoniga integratsiyalashuv jarayonlarining ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Shu bilan birga, ushbu yo‘nalishlarning mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘sishi, ijtimoiy taraqqiyoti hamda raqobatbardoshligini ta’minlashdagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Yangi O‘zbekiston, taraqqiyot strategiyasi, ta’lim tizimi, ilm-fan, innovatsiya, intellektual salohiyat, raqobatbardoshlik, yoshlar siyosati, barqaror rivojlanish, modernizatsiya

**Abstract:** The article provides an in-depth analysis of the strategic importance of developing education and science within the framework of the New Uzbekistan Development Strategy. It substantiates the role of knowledge and innovation as decisive factors in the progress of modern society and addresses issues regarding the development of human capital through the reform of the education system. Furthermore, the article highlights the urgency of strengthening the integration of education and science, supporting scientific research, implementing innovative technologies, and realizing the intellectual and creative potential of the youth. Special emphasis is placed on the importance of improving the quality of education, aligning with international standards, and integrating into the global knowledge space. Additionally, the article provides a scientific and theoretical justification for the role these areas play in ensuring the country's sustainable economic growth, social progress, and competitiveness.

**Keywords:** New Uzbekistan, development strategy, education system, science, innovation, intellectual potential, competitiveness, youth policy, sustainable development, modernization.

**Аннотация:** В статье представлен углубленный анализ стратегического значения развития образования и науки в рамках Стратегии развития «Новый Узбекистан». Обосновывается роль знаний и инноваций как определяющих факторов прогресса современного общества, а также рассматриваются вопросы развития

человеческого капитала посредством реформирования системы образования. Кроме того, в статье подчеркивается актуальность углубления интеграции образования и науки, поддержки научных исследований, внедрения инновационных технологий и реализации интеллектуально-творческого потенциала молодежи. Особое внимание уделяется вопросам повышения качества образования, его соответствия международным стандартам и интеграции в мировое теоретическое обоснование роли данных сфер в обеспечении устойчивого экономического роста, социального прогресса и конкурентоспособности страны.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, стратегия развития, система образования, наука, инновации, интеллектуальный потенциал, конкурентоспособность, молодежная политика, устойчивое развитие, модернизация.

Jahon taraqqiyotining endilikdagi bosqichi shu bilan tavsiflanadiki, davlatlarning kuch-qudrati va raqobatbardoshligi endilikda tabiiy resurslar yoki moddiy ishlab chiqarish hajmi bilan emas, balki bilim, ilm-fan va innovatsion salohiyat darajasi bilan belgilanmoqda. Bilimga asoslangan iqtisodiyot sharoitida inson kapitali – ya’ni jamiyat a’zolarining bilim, ko’nikma va ijodiy salohiyati davlat rivojlanishining eng qimmatli resursiga aylandi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasi tomonidan 2022-yilda qabul qilingan “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichini belgilab berdi va unda ta’lim hamda ilm-fan sohalarini rivojlantirish alohida ustuvor yo’nalish sifatida belgilandi<sup>1</sup>. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ta’lim tizimini isloh qilish borasida muayyan tajriba to’plangan bo’lsa-da, jahon standartlariga moslashish, ta’lim sifatini tubdan yaxshilash va ilm-fanni real iqtisodiyot ehtiyojlariga yo’naltirish masalalari hamon dolzarbligicha qolmoqda. Yangi O‘zbekiston strategiyasida bu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan kompleks yondashuv ishlab chiqilgan bo’lib, unda maktabgacha ta’limdan tortib doktoranturagacha bo’lgan barcha bosqichlarni qamrab oluvchi islohotlar, shuningdek ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag’batlantirish, innovatsion infratuzilmani shakllantirish va yoshlarning ijodiy salohiyatini ro’yobga chiqarish borasidagi chora-tadbirlar o’z aksini topgan. Ushbu maqolaning dolzarbligi bir necha omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozori talablari tez sur’atlar bilan o’zgarib bormoqda. Bu esa ta’lim tizimidan moslashuvchan va sifatli javob berishni talab qiladi. Ikkinchidan, ilm-fanni rivojlantirmasdan turib, mamlakatning texnologik mustaqilligiga erishib bo’lmaydi. Zero, innovatsiyalar aynan ilmiy tadqiqotlar negizida vujudga keladi<sup>2</sup>. Uchinchidan, yoshlar salmog’i yuqori bo’lgan O‘zbekiston uchun inson kapitalini sifat

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 – yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni.

jihatidan rivojlantirish demografik ustunlikni iqtisodiy ustunlikka aylantirishning yagona yo‘lidir. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta‘lim tizimini isloh qilish 5 ustuvor yo‘nalishdan biri sifatida belgilangan bo‘lib, bu tasodifiy emas. Istalgan mamlakatning kelajagi bevosita uning ta‘lim tizimi sifatiga bog‘liqdir. Strategiyada ta‘lim sohasidagi islohotlar uzluksiz ta‘lim tizimining barcha bosqichlarini, ya‘ni maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar hamda oliy ta‘limni qamrab oladi. Maktabgacha ta‘lim bosqichida bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasini oshirish, davlat va xususiy bog‘chalar tarmog‘ini kengaytirish, bolalarni erta yoshdan boshlab har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy dasturlarni joriy etish masalalari birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Umumiy o‘rta ta‘lim bosqichida esa ta‘lim mazmunini yangilash; o‘quvchilarning funksional savodxonligini oshirish; aniq va tabiiy fanlar hamda axborot texnologiyalariga ixtisoslashtirilgan sinflar tarmog‘ini kengaytirish muhim vazifa hisoblanadi. Bu borada xalqaro baholash dasturlari, xususan PISA kabi tashqi baholash tizimlarida ishtirok etish orqali ta‘lim sifatini xolisona baholash va uni jahon namunalari bilan solishtirish imkoniyati yaratilmoqda<sup>3</sup>. Bunday xalqaro sinovlarda qatnashish, bir tomondan, milliy ta‘lim tizimining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam bersa, ikkinchi tomondan, islohotlarning samaradorligini real vaqt rejimida kuzatib borish imkonini beradi. Oliy ta‘lim tizimida esa universitetlarning avtonomiyasini kengaytirish, ta‘lim dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish, kredit-modul tizimini takomillashtirish, shuningdek xorijning yetakchi universitetlari bilan qo‘shma ta‘lim dasturlarini joriy etish kabi yo‘nalishlar katta ahamiyatga ega. Oliy ta‘lim muassasalari sonining ortishi, talabalar qamrovining sezilarli darajada oshishi ta‘limga bo‘lgan tengsizlikni kamaytirishga xizmat qilsa-da, bu jarayonda ta‘lim sifatini pasaytirmaslik, aksincha, uni izchil yaxshilab borish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. Islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ularning me‘yoriy-huquqiy asosi bilan bog‘liq<sup>4</sup>. Ta‘lim sohasidagi qonunchilik bazasining takomillashtirilishi, davlat ta‘lim standartlarining yangilanishi, shuningek pedagog kadrlarning ijtimoiy himoyasi va malakasini oshirish borasidagi chora-tadbirlar ta‘lim islohotlarning barqaror va uzluksiz xarakter kasb etishini ta‘minlaydi. Ayni paytda, pedagog kadrlarning ish haqini oshirish, ularning kasbiy mahoratini takomillashtirish tizimini yaratish ham islohotlarning inson omili orqali samara berishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi<sup>5</sup>. Shunday qilib, ta‘lim tizimini isloh qilish bu nafaqat infratuzilmani yangilash, balki, ta‘lim mazmuni, sifati va uni amalga oshiruvchi kadrlar salohiyatini tubdan o‘zgartirish jarayonidir.

<sup>3</sup> YUNESKOning ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro hisobotlari (PISA dasturi materiallari).

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta‘lim tizimini rivojlantirishga oid qarorlari.

<sup>5</sup> BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (Sustainable Development Goals), 4-maqsad: “Sifatli ta‘lim”.

Ta’lim tizimi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ikkinchi muhim yo‘nalish – bu ilm-fanni rivojlantirish va mamlakatning innovatsion salohiyatini oshirishdir. Zamonaviy iqtisodiy o‘rta nazarlarida ta’kidlanishicha, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning asosiy manbai texnologik taraqqiyot va innovatsiyalar bo‘lib, ular o‘z navbatida ilmiy tadqiqotlar negizida vujudga keladi. Shu boisdan, Yangi O‘zbekiston strategiyasida ilm-fanni moliyalashtirish hajmini oshirish, ilmiy-tadqiqot institutlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda yosh olimlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag‘batlantirishning muhim mexanizmlaridan biri – grant tizimini takomillashtirishdir. Amaliy va fundamental tadqiqotlarni davlat granti asosida moliyalashtirish tizimining rivojlanishi olimlarga o‘z g‘oyalarini amalga oshirish uchun moliyaviy imkoniyat yaratadi. Ilm-fan sohasidagi raqobatni kuchaytiradi. Bundan tashqari, yosh iste’dodlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida maxsus stipendiyalar, ilmiy safarlarni moliyalashtirish, xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishni rag‘batlantirish tizimlari ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Innovatsion infratuzilmalarni shakllantirish borasida ham sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. IT-Park, texnoparklar, innovatsion klasterlarning yaratilishi yosh mutaxassislar va tadbirkorlarga o‘z g‘oyalarini amaliyotga tatbiq etish uchun qulay muhit yaratmoqda. Bunday infratuzilma nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratadi, balki mamlakatda innovatsion tafakkurni shakllantirishga, ilm-fan yutuqlarini real sektorga tez va samarali tarzda joriy etishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar, biotexnologiya va yashil energetika kabi istiqbolli yo‘nalishlarda ilmiy salohiyatni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylanmoqda. Ilm-fanning rivojlanishi faqat davlat homiyligiga tayangan holda emas, balki xususiy sektor va akademik doiralar o‘rtasidagi hamkorlik orqali ham ta’minlanishi zarur. Universitetlar qoshida ilmiy-innovatsion markazlarning tashkil etilishi, korxonalar bilan qo‘shma tadqiqot loyihalarini amalga oshirish amaliyoti ilm-fan natijalarining amaliy ahamiyat kasb etishini ta’minlaydi. Zamonaviy sharoitda ta’lim, fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlamasdan turib, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirib bo‘lmaydi. Yangi O‘zbekiston strategiyasida ushbu uch yo‘nalish o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish alohida vazifa sifatida belgilangan.

Xorijning yetakchi universitetlari filiallarining O‘zbekistonda faoliyat yuritishi, xalqaro qo‘shma ta’lim dasturlarining amalga oshirilishi mahalliy talabalarga sifatli ta’lim olish, jahon standartlariga mos bilim va ko‘nikmalarni egallash imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari, professor-o‘qituvchilar va talabalar almashinuvi dasturlarining kengayishi, xalqaro ilmiy konferensiyalarda ishtirok etish imkoniyatlarining ortishi milliy ta’lim va fan tizimini global bilim makoniga integratsiyalashuvini tezlashtiradi<sup>6</sup>. Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga faol tatbiq etilishi ham integratsiya jarayonlarini yangi bosqichga ko‘tarmoqda. Masofaviy ta’lim platformalari, elektron ta’lim resurslari, sun’iy intellektga asoslangan moslashuvchan ta’lim tizimlarining joriy etilishi ta’limning hududiy va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga, uzluksiz ta’lim tamoyilini amaliyotga tatbiq etishga

<sup>6</sup> Milliy statistika qo‘mitasining ta’lim va fan sohasidagi statistik ma’lumotlari.

xizmat qiladi<sup>7</sup>. Qishloq joylarda yashovchi yoshlar uchun ham sifatli ta’lim resurslariga teng kirish imkoniyatining yaratilishi ijtimoiy adolat tamoyilini mustahkamlaydi. O‘zbekiston aholisining aksariyat qismini yoshlar tashkil etishi mamlakat uchun nafaqat katta imkoniyat, balki ayni paytda katta mas’uliyatni ham anglatadi. Yosh va intellektual salohiyatga ega aholi to‘g‘ri yo‘naltirilgan taqdirdagina yaxshi samara beradi. Aks holda, sifatli ta’lim va bandlik imkoniyatlaridan mahrum bo‘lgan yoshlar salmog‘ining ortishi ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, Yangi O‘zbekiston strategiyasida yoshlarning intellektual, ijodiy va tadbirkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish alohida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Ushbu yo‘nalishda kasb-hunar ta’limi tizimini zamonaviylashtirish muhim o‘rin tutadi. Mehnat bozori talablariga mos kasb-hunar ta’limi dasturlarini ishlab chiqish, amaliy ko‘nikmalarga asoslangan o‘qitish metodikasini joriy etish, ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikda amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish yoshlarning bandligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi<sup>8</sup>. Bundan tashqari, yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash maqsadida kreditlar ajratish, startup loyihalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlar ham amalga oshirilmoqda. Iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, xalqaro olimpiada va tanlovlarda ishtirok etganlarni rag‘batlantirish, shuningdek ularga xorijda ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish yoshlarning intellektual saohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida faqat bilim berish emas, balki tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va raqamli savodxonlik kabi XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishga ham alohida e’tibor qaratilishi zarur. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida ta’lim va ilm-fanni rivojlantirishning strategik ahamiyatini yakunlovchi fikrga keladigan bo‘lsak, avvalambor shuni aytish joizki, ta’lim va ilm-fan bir-biridan ajralmas, bir-birini to‘ldiruvchi yaxlit tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Ta’limsiz ilm-fan o‘zining kadrlar bazasidan mahrum bo‘ladi, ilm-fansiz ta’lim esa faqat mavjud bilimlarni takrorlash bilan chegaralanib qoladi va rivojlanish dinamikasini yo‘qotadi. Shu boisdan, strategiyada bu ikki yo‘nalishning yagona konseptual asosda birlashtirilgani metodologik jihatdan to‘g‘ri va oqilona yondashuv hisoblanadi. Insoniyat tarixida iqtisodiy taraqqiyotning turli bosqichlarida, ya’ni agrar jamiyatdan sanoat jamiyatiga, sanoat jamiyatidan bilimga asoslangan jamiyatga o‘tish jarayonlarida har safar ta’lim tizimining tub islohoti yangi taraqqiyot bosqichining boshlanish nuqtasi bo‘lgan. O‘zbekiston hozirgi kunda aynan shunday tarixiy burilish nuqtasida turibdi va Yangi O‘zbekiston strategiyasi bu burilishni ongli va izchil tarzda boshqarishga qaratilgan dastur sifatida hisobladi. Mamlakatda maktabgacha ta’limdan tortib oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni qamrab oluvchi kompleks yondashuv shakllantirilgan. Bu yondashuvning muhim jihati shundaki, u faqat tashkiliy-institutsional o‘zgarishlar bilan chegaralanib qolmay, balki ta’lim mazmuni, pedagogik metodologiya va

<sup>7</sup> Innovatsion rivojlanish vazirligining ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyat to‘g‘risidagi hisobotlari.

<sup>8</sup> Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining rasmiy ma’lumotlari.

baholash tizimlarini ham qamrab oladi. Ta’limga sarflangan har bir mablag‘ kelajakda mehnat unumdorligining oshishi, daromadlar darajasining ko‘tarilishi va innovatsion faollikning kuchayishi orqali qaytadi. Maktabgacha ta’lim qamrovining kengayishi, umumiy o‘rta ta’limda funksional savodxonlikka urg‘u berilishi hamda oliy ta’lim tizimida avtonomiyaning kengayishi – bularning barchasi uzoq muddatli istiqbolda mamlakat inson kapitalining sifat jihatidan o‘rishiga xizmat qiluvchi omillar sifatida baholanishi lozim. Ta’lim tizimidagi islohotlarning mustaqillik yillari davomida bosqichma-bosqich chuqurlashib borgani, Yangi O‘zbekiston strategiyasi esa ushbu jarayonning yangi, yanada tizimli va natijaga yo‘naltirilgan bosqichi ekanligini ham alohida ta’kidlash o‘rinlidir. Pedagog kadrlar salohiyati masalasi ta’lim islohotlarining markazida turadi. Zero, qanchalik zamonaviy infratuzilma va dasturlar yaratilmasin, ularni amalga oshiruvchi malakali o‘qituvchilarsiz har qanday islohot faqat qog‘ozda qolib ketishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, pedagog kadrlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilash, ularning kasbiy rivojlanishi uchun uzluksiz imkoniyatlar yaratish strategiyaning eng nozik, ammo hal qiluvchi jihatlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish orqali olingan natijalar esa mamlakat ta’lim tizimining kuchli va zaif tomonlarini xolisona aniqlash imkonini beradi. Bu esa keyingi islohot bosqichlarini ilmiy asoslangan tarzda rejalashtirish uchun zarur ma’lumot bazasini yaratadi. Milliy innovatsion tizimni shakllantirish jarayoni ko‘p qirrali xarakterga ega bo‘lib, u davlat, akademik doiralar va xususiy sektor o‘rtasidagi uyg‘un hamkorlikni talab qiladi. Grant tiziminining takomillashtirilishi, yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining kengaytirilishi, shuningdek IT-Park va texnoparklar kabi innovatsion infratuzilma ob’ektlarining barpo etilishining barchasi ilm-fanni nazariy bilimdan amaliy natijaga aylantirishga xizmat qiluvchi bosqichlar hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarning real iqtisodiyot ehtiyojlariga yaqinlashtirilishi, ayniqsa sun’iy intellekt, biotexnologiya va yashil energetika kabi istiqbolli yo‘nalishlarda ilmiy salohiyatning shakllantirilishi, mamlakatning kelgusi o‘n yilliklardagi texnologik mustaqilligini ta’minlovchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Ilm-fan sohasidagi islohotlarning samaradorligi ko‘p jihatdan ilmiy natijalarning amaliyotga tatbiq etilish tezligiga bog‘liq ekanligini ham unutmash lozim. Universitetlar qoshida tashkil etilayotgan ilmiy-innovatsion markazlar, korxonalar bilan amalga oshirilayotgan qo‘shma tadqiqot loyihalari aynan ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi masofani qisqartirishga xizmat qiladi. Fan sohasidagi kadrlar salohiyatini saqlab qolish, ya’ni iqtidorli olimlarning xorijga ketishining oldini olish yoki ularni mamlakatga qaytarish masalasi ham strategik ahamiyat kasb etadi. Ilmiy salohiyat – bu, avvalambor, insonlarda mujassam bo‘lgan bilim va tajribalar yig‘indisidir. Xorijning yetakchi universitetlari bilan hamkorlik, qo‘shma ta’lim dasturlarining joriy etilishi, professor-o‘qituvchilar va talabalar almashinuvining kengayishi va bularning barchasi milliy tizimni jahon standartlari bilan uzluksiz solishtirib borish, shu orqali o‘z kamchiliklarini o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga tatbiq etilishi esa nafaqat integratsiya jarayonlarini tezlashtiradi, balki ta’limning hududiy va ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etuvchi vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki masofaviy va raqamli ta’lim resurslari orqali qishloq joylardagi yoshlar ham barcha tengdoshlari bilan bir xil bilim manbalaridan

foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘tgan asrning ikkinchi yarmida tabiiy resurslarga unchalik boy bo‘lmagan, ammo ta‘lim va ilm-fanga ustuvor ahamiyat qaratgan bir qator davlatlar, asosan Janubi-Sharqiy Osiyo va Shimoliy Yevropa mamlakatlari qisqa tarixiy davr ichida yuqori iqtisodiy taraqqiyot darajasiga erisha oldilar. Chet el tajribasiga ko‘ra, ta‘lim sifatiga qaratilgan izchil davlat siyosati, o‘qituvchilik kasbining nufuzini oshirish, shuningdek ilm-fanni real iqtisodiyot bilan uzviy bog‘lash hamda shunga o‘xshash ko‘pgina jarayonlar milliy taraqqiyotning barqaror va uzoq muddatli poydevorini yaratuvchi omillar hisoblanadi. O‘zbekistonda Yangi O‘zbekiston strategiyasida tanlagan yo‘nalishi mazkur xalqaro tajriba bilan konseptual jihatdan uyg‘un bo‘lib, bu mamlakatning to‘g‘ri strategik yo‘nalishni tanlaganidan dalolat beradi. Ta‘lim va ilm-fan sohasidagi islohotlarning natijalari, odatda, uzoq muddatli xarakterga ega bo‘lib, ularning samarasini qisqa muddatda ko‘rish qiyin kechadi. Bu esa islohotlarni izchil va uzluksiz davom ettirish borasida siyosiy va institutsional barqarorlikni talab qiladi. Poytaxt va yirik shaharlar bilan boshqa hududlar o‘rtasidagi ta‘lim sifati bo‘yicha mavjud tafovutlarni bartaraf etish, shaharda va qishloqda yashovchi yoshlar o‘rtasidagi imkoniyatlar tengsizligini kamaytirish ham davom etayotgan dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ilm-fan sohasida malakali kadrlarni saqlab qolish, ularning mehnatiga munosib haq to‘lash tizimini yaratish masalasi ham islohotlarning barqaror davom etishi uchun muhim shart hisoblanadi. Ta‘lim va ilm-fan sohasidagi islohotlarning moliyaviy ta‘minoti masalasi ham alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Jahon tajribasi shunni ko‘rsatadiki, ta‘lim va ilm-fanga ajratiladigan davlat xarajatlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi mamlakat taraqqiyot darajasi bilan bevosita bog‘liqdir. Biroq, bu yerda faqat moliyalashtirish hajmini oshirish emas, balki mavjud mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Natijaga yo‘naltirilgan moliyalashtirish tamoyillarining joriy etilishi, ta‘lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini kengaytirish, shuningdek davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining rivojlantirilishi mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim yo‘nalishlar hisoblanadi. Xususiy ta‘lim muassasalari va oliy ta‘lim tarmog‘ining kengayishi davlat byudjetiga tushadigan yukni kamaytirish bilan bir qatorda, ta‘lim xizmatlari bozorida sog‘lom raqobat muhitini ham shakllantiradi. Bundan tashqari, raqamli transformatsiya jarayoni ta‘lim va ilm-fan tizimining barcha bo‘g‘inlariga chuqur ta‘sir ko‘rsatmoqda. Elektron ta‘lim platformalari, raqamli kutubxonalar, masofaviy baholash tizimlarining joriy etilishi ta‘lim jarayonini nafaqat texnik jihatdan zamonaviylashtiradi, balki ta‘lim oluvchining shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirilgan individual ta‘lim traektoriyalarini shakllantirish imkonini ham beradi. Sun‘iy intellektga asoslangan moslashuvchan ta‘lim tizimlari o‘quvchi va talabaning bilim olishdagi kuchli hamda zaif tomonlarini aniqlab, unga mos ravishda ta‘lim mazmunini individuallashtirish imkonini yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida, ta‘lim samaradorligini oshirishning yangi, ilgari mavjud bo‘lmagan mexanizmlarini vujudga keltiradi. Raqamli transformatsiya jarayonida axborot xavfsizligini ta‘minlash, raqamli savodxonlikni oshirish va texnologik tengsizlikning oldini olish masalalariga ham jiddiy e‘tibor qaratilishi zarur. Ta‘lim sifatini nazorat qilish va kafolatlash tizimini takomillashtirish masalasi ham strategik ahamiyatga ega. Mustaqil baholash va akkreditatsiya institutlarining rivojlantirilishi, ta‘lim muassasalari

faoliyatini xolisona baholash mezonlarining ishlab chiqilishi ta’lim sifati bo’yicha shaffof va ishonchli ma’lumot bazasini yaratadi. Bunday tizimning mavjudligi nafaqat davlat organlari, balki ota-onalar, ish beruvchilar va jamiyatning boshqa manfaatdor tomonlari uchun ham ta’lim muassasalari faoliyati to’g’risida xolisona xulosa chiqarish imkonini beradi. Sifat kafolati tizimining institutsional jihatdan mustahkamlanishi, o’z navbatida, ta’lim muassasalari o’rtasida sog’lom raqobat muhitini shakllantiradi. Bu jarayon umumiy ta’lim sifatining oshishiga xizmat qiladi. Ta’lim va ilm-fan sohasidagi islohotlarning ijtimoiy adolat tamoyili bilan uzviy bog’liqligini ham alohida ta’kidlash lozim. Tenglikni ta’minlash, nogironligi bo’lgan shaxslar uchun inklyuziv ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlarining sifatli ta’limga teng kirish huquqini ta’minlash – bularning barchasi ta’lim tizimining insonparvarlik mohiyatini aks ettiruvchi muhim jihatlar hisoblanadi. Ta’lim orqali ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish mumkinligi ko’plab xalqaro tadqiqotlarda isbotlangan haqiqat bo’lib, bu borada O‘zbekistonning ham izchil siyosat yuritishi jamiyatda ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayni paytda, hududlar o’rtasidagi ta’lim infratuzilmasi va sifat darajasidagi tafovutlarni bartaraf etish borasidagi sa’y-harakatlar ham ushbu insonparvarlik tamoyilining amaliy ko’rinishi hisoblanadi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish shunchaki bitta tarkibiy yo’nalish emas, balki butun strategiyaning muvaffaqiyatini belgilovchi tayanch negiz hisoblanadi. Iqtisodiy o’sish, ijtimoiy barqarorlik, texnologik mustaqillik va xalqaro raqobatbardoshlik va bularning barchasi oxir-oqibat, mamlakatning ta’lim va ilm-fan sohasidagi salohiyatiga borib taqaladi. Ta’lim tizimini isloh qilish, ilm-fanni rivojlantirish, ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish hamda yoshlarning intellektual salohiyatini ro’yobga chiqarish kabi yo’nalishlar o’zaro bog’liq bo’lgan yaxlit tizimni tashkil etadi va aynan shu yaxlitlik Yangi O‘zbekistonning barqaror va innovatsion taraqqiyot yo’lidan izchil harakatlanishini ta’minlaydigan asosiy kafolat hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 – yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni.
3. YUNESKOning ta’lim sifatini baholash bo’yicha xalqaro hisobotlari (PISA dasturi materiallari).
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta’lim tizimini rivojlantirishga oid qarorlari.
5. Milliy statistika qo’mitasining ta’lim va fan sohasidagi statistik ma’lumotlari.
6. Innovatsion rivojlanish vazirligining ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyat to’g’risidagi hisobotlari.
7. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining rasmiy ma’lumotlari.